



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 29-noyabr, shanba,
136 (24.166)-son

O'zbek xalq
maqoli

Himmatli er,
o'z elin der

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Urgutga poyezd bilan shiddat ham kirib boryapti



Urgutliklar azal-azaldan ishbilarmonligi bilan el og'ziga tushgan. Endilikda tadbirkorlarga katta imkoniyatlar berilganda bu hududdan respublikada tainqli tadbirkorlar yetishib chiqdi.

Tadbirkorlar, ilmiy, ziyoli insonlar orasida ham urgutliklar juda ko'p. Bu hududning o'ziga xosligi hozircha yetarli foydalanilmayotgan noyob tabiati, tarixiy maskanlaridan ko'ra inson resurslarida ko'proq ifodalangani. Bu fenomen o'rganish, kerak bo'lsa, o'rnak olish juda muhim.

Aynan mana shu hududga shu kunlarda ilk bor poyezd qatnovi yo'lga qo'yildi. Aholisi jihatidan eng katta tuman sanalgan Urgut aholi temiryo'l transportini uzoq kutgani rost. Aholini Samarqand shahri bilan bog'lash bilan bir qatorda bu yerda ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni hududlarga poyezd orqali yetkazishni yo'lga qo'yishga allaqachon katta ehtiyoj sezilib qolayotgandi.

POYEZD SHUNCHAKI TRANSPORT EMAS

25-noyabr urgutliklar uchun tarixiy bir kun bo'ldi. Mamlakatimiz rahbari bir guruh faollar bilan Samarqand shahridan yangi tashkil etilgan poyezdda Urgut tumaniga bordi, u yerda viloyat miqyosidagi yig'ilish o'tkazildi. Keyingi kun samarqandlik faollar Urgutga bordi, urgutlik turli soha vakillaridan tarkib topgan jamoa poyezdda Samarqand shahriga keldi.

- Kuni kecha Yurtboshimiz o'zi bilan tumanimizga katta quvonch olib keldi, - deydi Nuroniyl jamg'arasi Urgut tuman bo'limi raisi Farmon Azizov. - Keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgan yig'ilishda Urgut tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha katta loyihalar ilgari surildi. Bu loyihalar amalga oshsa, tuman salohiyati qanchalik oshishini tasavvur qilavering. Tuman aholi bu e'tibordan bir g'ayratiga o'n g'ayrat qo'shilib harakat qiladi, deb o'ylayman.

Poyezdning ilk yo'lchilari sifatida Urgutga borar ekanmiz, volkzaldagi zamonaviy shart-sharoitlar kishiga o'zgacha zavq beradi.

Tashrifdan so'ng



YILIGA 359 MING YO'LOVCHI VA 8,2 MILLION TONNA YUK TASHISH MUMKIN
- 2025-yilning fevral oyida qurilishi boshlangan "Samarqand - Urgut" yangi temiryo'l tarmog'i loyihasi hududda transport infratuzilmasini yaxshilash, yo'lovchi va yuk tashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida amalga oshirildi, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov. - Umumiy uzunligi 55 kilometr bo'lgan ushbu yo'l mamlakatimiz transport infratuzilmasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha doirasida ikkita zamonaviy vokzal, "Urgut" iqtisodiy zonasida hududida ikkita yuk stansiyasi, shuningdek, bir qator ko'priklar va inshootlar barpo etildi. Yo'nalishni kelgusida to'liq elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Yangi temiryo'l tarmog'i ikki juft shaharlararo yo'lovchi poyezdlari va to'qqiz juft yuk poyezdlari qatnovini tashkil etish imkoniyatini yaratdi. Qatnovlar yo'lga qo'yilishi natijasida yiliga 359 ming yo'lovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkoniyati yaratiladi.

YANGI POYEZD JADVALI

27-noyabrdan boshlab Samarqanddan Urgutga, Urgutdan Samarqandga poyezd qatnay boshladi. Poyezd bir kunda ikki marta qatnaydi: Urgutdan soat 6.30 va 16.59 da Samarqandga qarab harakatlanadi, Samarqanddan esa soat 8.47 va 19.27 da Urgutga qarab harakatlanadi. Chiptalarni volkzalning o'zida yoki onlayn tarzda xarid qilish mumkin.

TIJORAT, TURIZM, MADANIYAT

Shu yil Urgut tumanida bir qator xalqaro miqyosda turistik tadbirlarning o'tkazilgan haqida xabarimiz bor. Xalqaro paroplan musobaqalari, turizm qishloqlarida qator tadbirlar o'tkazildi. Shuningdek, tumanida 11 mahalla turizm qishlog'iga aylantirilib, "Qoratepa" suv omborida suv sporti turizmi rivojlantirilib, Chor chinorda dor yo'li qurilishi rejalashtirilgan. Bu tuman qo'shni Tojikiston bilan chegaradosh bo'lgani uchun qo'shni respublika bilan savdo-sotiq ko'lami ham yildan-yilga ko'tarilib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bir kunda Jartepa chegara o'tkazish maskani orqali qo'shni davlatdan 4 mingga yaqin kishi o'tib qaytadi. Ular uchun poyezdda Samarqand shahriga yoki Urgutga kelish ancha qulay, xavfsiz va arzon bo'ladi.

Tabiiyki, iqtisodiy jihatdan bunday strategik hududga poyezdning kelishi yuqoridagi mutasaddilar ta'kidlaganidek, salohiyatning yanada o'sishiga xizmat qiladi.

Gulruh MO'MINOVA.

Prezident farmoniga ko'ra



Sudyalarni 10 yillik muddatga tayinlash bekor qilindi

Davlatimiz rahbari "Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qildi.

Unga ko'ra, sud tizimida gender tenglikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish orqali ayol sudyalarning ulushi kamida 30 foizga yetkaziladi.

Sudyalarni navbatdagi o'n yillik muddatga tayinlash (saylash) tartibini bekor qilib, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni dastlab besh yil muddatga, keyinchalik muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi belgilanadi.

Tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni aniq mezonlarga ko'ra sudyalarning orasida ochiq tanlov asosida tanlash tartibi o'rnatiladi.

Sudyaning kasbiy faoliyatini baholashda "halollik", "kasbiy layoqatlilik" va "sudyalik odobi qoidalariga rioya etish" talablarining aniq mezonlari qonun darajasida belgilanadi.

Sudyalar oliy kengashining doimiy asosida faoliyat yurituvchi sudyalari lavozimiga nomzodlar tegishli sud sudyalari malaka hay'atlari tomonidan tavsiya etiladi. Bunda kengashning doimiy asosida faoliyat yurituvchi sudyalari lavozimiga, qoida tariqasida, sudya sifatida kamida 7 yil ishlagan sudyalarning nomzodi ko'rsatilishi mumkin.

Sudyalar oliy kengashining doimiy asosida faoliyat yurituvchi sudyalari tarkibi Oliy sudidan - ikki nafar sudya, viloyat darajasidagi sudlardan - yetti nafar sudya, tumanlararo, tuman, shahar sudlaridan - to'rt nafar sudya bilan shakllantiriladi.

2025-yil 15-dekabr qadar sudyalarning oliy kengashining rasmiy veb-saytida sud tizimida mavjud bo'sh rahbarlik va yuqori turuvchi sudyalik lavozimlariga oid ma'lumotlar hamda ularni egallash uchun tanlovda ishtirok etish tartibi, sud tizimida sudyalik lavozimlari, shu jumladan, rahbarlik va yuqori turuvchi sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash hamda tayinlash bo'yicha barcha bosqichlarga oid ma'lumotlarni ochiq e'lon qilib borish amaliyoti joriy etiladi.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlardan ortiqcha ma'lumotlar talab etilishiga chek qo'yish maqsadida "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi Sudyalar oliy kengashining axborot tizimi bilan to'liq integratsiya qilinadi.

Sudyalar faoliyati samaradorligini baholashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Sudyaga nisbatan intizomiy ish ko'rib chiqishda uning himoyaga bo'lgan huquqiy taqdim etiladi. Quyi sudyalik lavozimiga o'tkazish intizomiy jazo chorasi joriy etiladi. Intizomiy jazo amalda bo'lgan vaqtda yuqori sudyalik lavozimiga tavsiya etmaslik yo'lga qo'yiladi.

Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul qilishda har yili zaruratga qarab xotin-qizlar uchun kvota belgilanadi.

O'zbekiston ayol sudyalari assotsiatsiyasi tashkil etiladi.

Sud tizimida kamida besh yillik mehnat tajribasiga va ilmiy salohiyatga ega sudyalarning qonunchilikda belgilangan tartibda Odil sudlov akademiyasiga professor-o'qituvchi lavozimiga tayinlanganda Akademiyadagi faoliyati tugagandan so'ng uning muqaddam ishlagan sudyalik lavozimida ishini davom ettirishi, bo'sh turgan sudyalik lavozimi bo'lmagan taqdirda, roziligi bilan avvalgisiga teng boshqa sudyalik lavozimiga o'tkazilishi belgilanadi.

Milliy jurnalistikamiz taraqqiyotida Behbudiyning o'rni beqiyos

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan "Milliy jurnalistikamiz taraqqiyoti va Mahmudxo'ja Behbudiy fenomeni" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.



Davlatimiz rahbarining joriy yilda yurtimizda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlashga doir qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, viloyat hokimligi va Samarqand davlat universiteti hamkorligida tashkil etilgan tadbirida universitet professor-o'qituvchilari, Behbudiy hayoti va faoliyatini tadqiq etayotgan olim va tadqiqotchilar, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlaridagi ommaviy axborot vositalari vakillari, Jurnalistlar uyushmasi a'zolari ishtirok etdi.

Samarqand davlat universiteti rektori, professor R.Xolmurodov, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi X.Salimov, Oliy Majlis Senati a'zosi, "Ishonch" va "Ishonch-Doveriye" gazetalari bosh muharriri H.Ermatov, "Zarafshon" va "Samarqandskiy vestnik" gazetalari bosh muharriri F.Toshev va boshqalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning buyuk jadid bobolarimiz, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ilmiy, ijodiy faoliyatini o'rganish, keng targ'ib etishga qaratilgan alohida e'tibori natijasida bu yil yurtimizda ma'rifatparvar adib tavalludining 150 yilligi munosabati bilan ko'plab ma'rifiy-madaniy tadbirlar, ilmiy anjumanlar o'tkazilganini ta'kidladilar. Bu esa Vatanimiz ozodligi, xalqimiz ma'rifati uchun jon fido qilgan ulug' ajdodlarimiz ruhini shod etish, ular nomini ulug'lash va o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgani qayd etildi.

- Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, ulug' ma'rifatparvar olim,

mohir jurnalist va dramaturg sifatida xalqimiz ozodligi yo'lida o'z qalami, so'zi bilan kurashdi, aholini ilm-ma'rifatga chorladi, - dedi anjumanda so'zga chiqqan behbudiyshunos olim, professor Halim Saidov. - Buyuk bobomizning milliy jurnalistikamiz rivojiga qo'shgan hissasini ham beqiyos va uni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Behbudiy hazratlari o'tgan asr boshlarida Samarqandda gazeta, jurnallar tashkil etib, bu nashrlar orqali xalqimizni o'z haq-huquqlarini bilishga, ilm olishga, siyosatdan xabardor bo'lishga da'vat etdi. Jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni bu nashrlarda sharhlab bordi va shu bilan birga, jamiyatdagi illatlarni bayon etib, xalqimizni ma'rifatga boshladi. Darsliklar yozib, ota-onalarni farzandlarini o'qitishga, ularga xorijiy tillarni o'rgatishga da'vat etdi. Allohning bu boradagi qarashlari va g'oyalari bugun ham juda dolzarb va ahamiyatlidir.

Anjumanda Behbudiy avlodlari, jurnalistlar ham so'zga chiqib, buyuk ma'rifatparvar ajdodimizning merosini o'rganish va targ'ib etish borasidagi ishlarga e'tibor qaratdilar.

Konferensiya doirasida qo'shni viloyatlaridan kelgan ommaviy axborot vositalari vakillari universitetdagi ta'lim jarayonlari va zoologiya muzeyi, Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi faoliyati bilan tanishdilar. Shuningdek, mehmonlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Abdusaid Ko'chimovning Urgut tumani Dehqonobod mahallasida yaqinda ochilgan kutubxonasida ham bo'ldilar.

Xurshid XAYRULLAYEV.

Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironlik bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasi.

3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni



Nogironlik imkonsizlik emas

3-dekabr — Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni munosabati bilan viloyat hokimligi tomonidan xayriya marafoni o'tkazildi. Unda davlat va jamoat tashkiloti vakillari, deputatlar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Anjumanda so'zga chiqqanlar bugun imkoniyati cheklangan shaxslar uchun butunlay yangicha e'tibor tizimi yo'lga qo'yilganiga to'xtaldi.

- Joriy yilning o'tgan davrida nogironligi bo'lgan shaxslarning 5 ming 864 nafarining bandligi ta'minlandi, 6009 nafari o'zini-o'zi band qilgan bo'lsa, 3672 nafari paraspportga jalb qilindi, 3086 nafari esa imkoniyati cheklangan bolalarga tegishli ta'lim turlari bo'yicha o'qitildi va 12 ming 448 nafari reabilitatsiya vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi, - deydi ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Sherali Yo'ldoshev. - Eng muhimi, nogiron bo'lib qolgan yurtidoshimiz xalqimizning, davlat idoralarining mehr-e'tiboridan chetda qolmasdan, o'zining mehnati va qobiliyati bilan nafaqat hayotda o'z o'rnini egallab kelmoqda, balki azmu matonati, sabr-bardoshi va shukronalik fazilatlarini bilan ko'pchilikka ibrat bo'lmoqda. Bugungi kunda viloyatda 111 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan yurtidoshlarimiz hech kimdan kam bo'lmasdan ishtirok qilib kelmoqda.

Tadbir doirasida ishtirok-

chilarning Samarqand shahrida diqqatga sazovor joylarga sayohati uyushtirildi.

- Nogironlik imkonsizlik emas, - deydi Past Darg'om tumanidagi 2-sport maktabi bandminton bo'yicha murabbiyi, 1-guruh nogironi Umar Shodiyev. - Baxtsiz hodisa tufayli nogironlik aravachasiga mixlandim. Ammo, umidsizlikka tushmadim. Mana, besh yildirki, badminton bo'yicha murabbiylik faoliyatini olib boryapman. Ayni paytda to'qqiz nafar nogironligi bo'lgan bolalar bilan parabadminton bo'yicha mashg'ulotlar olib bormoqdaman. Shogirdlarimga birinchi navbatda jismoniy imkoniyatning cheklanganligi hayot tugadi, degani emasligini uqtiraman. Hayot harakatdan iborat ekanligiga ishonirib, bor imkoniyat bilan harakat qilishga undayman. Maqsadimiz xalqaro maydonlarda ham cheklangan imkoniyatimiz bilan cheklanmagan orzularimizni amalga oshirishdan iborat.

Alisher ISROILOV.

Munosabat



Kuchimiz — birlikda,

muvaffaqiyat sari yo'limiz — do'stlik va hamkorlikda

Joriy yil 16-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo'yicha qo'shma bayonot qabul qilinib, qator muhim hujjatlar imzolandi. Sammit mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va strategik maqsadlarni belgilash borasida yangi bosqichni boshlab berdi.

Uchrashuvda Prezidentimiz tomonidan muhim tashabbuslar ilgari surilib, mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida muloqotning maslahat formatidan samarali hamkorlikka o'tdi. Chegaralar ochildi, energetika, transport va savdo sohalarda tayanch mexanizmlar yaratildi. O'zaro savdo hajmi 10,7 milliard dollarni tashkil etib, mintaqaviy investitsiyalar 17 foizga o'sdi.

Institutsional asoslarni mustahkamlash

Prezident uchrashuvlar formatida "Markaziy Osiyo hamjamiyati" strategik platformasini barpo etish, Kotibiyatni tashkil qilish, Oqsqoqlar kengashini tuzish va milliy muvofiqashtiruvchilar maqomini oshirishni taklif qildi.

Iqtisodiyot va investitsiyalar

Mintaqa mamlakatlari o'zaro savdoni 1,5–2 barobar oshirish imkoniyatiga ega. Prezident quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

- 2035-yilgacha mo'ljallangan Savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini qabul qilish,
- Yagona investitsiya makoni to'g'risida deklaratsiya ishlab chiqish,
- Elektron tijoratni birgalikda rivojlantirish.

Transport va infratuzilma

O'zbekiston "Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston" temir yo'li, Transafg'on koridori va Transkaspiy yo'nalishini rivojlantirish kabi yirik loyihalarda mintaqaviy birdamlikka chaqirdi. Shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha Kengash tuzish taklif etildi.

Xavfsizlik va Afg'oniston masalasi

Mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi va tahdidlar katalogi muhokama etildi. Prezident Afg'onis-

tonni energetika va transport loyihalariga integratsiya qilishning ahamiyatini qayd etib, "Farg'ona tinchlik forumi"ni doimiy xalqaro anjumanga aylantirish tashabbusini bildirdi.

Iqlim va suv resurslari

O'zbekiston 2026–2036-yillar ni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish o'n yilligi" deb e'lon qilish, shuningdek, suv xo'jaligi bo'yicha mintaqaviy kompetensiyalar markazini tashkil etishni taklif qildi.

Gumanitar sohada hamkorlik

Ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish qo'llab-quvvatlandi. Prezident har yili ma'naviy meros va ma'rifatparvarlikka bag'ishlangan Xalqaro kongress o'tkazish, Mintaqaviy ilmiy tadqiqotlar jamg'armasini tashkil etish hamda mintaqamiz mutafakkirlarining insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini haqida BMT rezolyutsiyasini taklif etdi.

Ozərbayjonning qo'shilishi – yangi bosqich

Sammit ishtirokchilari Ozarbayjonning to'laqonli ishtirokchi sifatida qo'shilishini bir ovozdan ma'qulladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida yagona hamkorlik makonini shakllantirishini ta'kid-ladi.

Xulosa qilib aytganda, Toshkentda o'tgan bu sammit mintaqada tarixda muhim voqeaga aylandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning kuchimiz – birlikda, muvaffaqiyat sari yo'limiz – do'stlik va hamkorlikda".

Haqiqatan ham birdamlik va hamjihatlik orqali Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va xalqlar farovonligiga erishish mumkin.

Badridin NASRIYEV,
XDP viloyat kengashi raisi, viloyat Kengashi deputati.



Viloyatimizda 380 ming 200 gektar sug'oriladigan yer maydoni bor va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 3971 kilometr ochiq va yopiq kollektor tarmoqlari, 57 dona meliorativ tik quduq hamda 847 dona kuzatuv qudug'i xizmat qiladi.

Viloyat meliorativ ekspedit-siyasi tomonidan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun kollektor-drenaj tarmoqlari barqaror ishlashini ta'minlash, sho'rlangan yer maydonlarida sho'r yuvish tadbirlarini amalga oshirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Joriy yil bahorgi ekish mavsumida viloyatdagi 3593 gektar yer kam sho'rlangan, shundan 297 gektari o'rta sho'rlangan yerlarni tashkil etgan. Viloyatda sug'oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash maqsadida joriy yilda meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihalari bo'yicha 3 ta obyekt-da 6,9 kilometr ochiq kollektorlarni yopiq-yotiq kollektorga o'tkazish ishlariga 6 milliard 329 million so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan edi. Hozirda pudratchi tashkilotlar tomonidan 3 ta obyekt-da 6,6 kilometr ochiq kollektorlarni yopiq-yotiq kollektorga o'tkazish ishlari bajarilib, 10 milliard 829 million so'mlik qurilish ishlari bajarildi.

Meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash dasturi doirasida 11 ta obyekt-da 450 kilometr kollektor tarmoqni ta'mirlash-tiklash ishlariga 11 milliard so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Bu yo'nalishda joriy yilning 1-noyabr gacha pudratchi tashkilotlar tomonidan 400 kilometr kollektor tarmog'ida ta'mirlash-tiklash ishlari bajarilib, 8 milliard 679 million so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Mazkur meliorativ tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq bajarilishi natijasida viloyatda 10800 gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilanishiga erishiladi.

Viloyatda bugun 848 dona kuzatuv qudug'i mavjud va shundan 608 donasiga "Diver" qurilmasi o'rnatilgan. Ularning 540 donasidan (90 foiz) vazirlik serveriga ma'lumot uzatilmog'ida. Joriy yilgi rejaга asosan 76 dona o'rniga 93 ta kuzatuv qudug'iga "Diver" qurilmasi o'rnatilib, vazirlik serveriga integratsiya qilindi.

"DAYVER" QURILMASI NIMA, QANDAY FOYDASI BOR?

Oldinlari kuzatuv quduqlardagi sizat suvlari sathi xodimlarimiz tomonidan har o'n kunda o'lchab borilar edi. "Dayver" qurilmasi meliorativ kuzatuv quduqlarda yer osti sizat suvlari monitoringini yuritish uchun mo'ljallangan.

2030-yilgacha qariyb 180 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiya joriy etiladi

Kun mavzusi



Mazkur qurilmalar meliorativ kuzatuv quduqlariga o'rnatilib, ular yordamida quduqdagi sizat suv sathi, mineralashganlik darajasi, bosimi hamda vodorod (PH) ko'rsatkichlari aniqlanadi va onlayn tarzda o'lchash ishlari bajariladi. Qurilmalar yordamida yuqoridagi ko'rsatkichlar muayyan vaqt oralig'ida avtomatik tarzda o'lchanadi va ma'lumotlar GSM-GPRS tizimi orqali server qurilmalariga bog'lanadi. Ko'rsatkichlar meliorativ kuzatuv quduqlarida sizat suvlari sathi va ularning mineralashuvini onlayn kuzatish imkonini beruvchi axborot tizimida aks etadi.

SUVNI TEJASH – ASOSIY VAZIFA

Hozirgi kunda butun mintaqada, hatto, dunyoning boshqa hududlarida ham suv tanqisligi kuchayib bormog'ida. Bu mavjud resurslardan unumli foydalanish, tejoyvchi vositalar yordamida mahsulot yetishtirishni rag'batlantirishni taqozo etadi. Shu bois respublikamizda suv tejoyvchi vositalarni joriy etgan holda qishloq xo'jalik tarmoqlarida to'g'ri foydalanish, bunday vositalar yordamida mahsulot yetishtiruvchi subyektlarga subsidiyalar berish tizimi joriy etilgan. Viloyat suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi hisobidagi sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish borasida har yili rejalari belgilanadi. Joriy yilda 21 milliard so'm mablag' hisobidagi muassasa hisobidagi 21 kilometr sug'orish tarmog'i betonlashtirilmog'ida.

Shuningdek, viloyat bo'yicha 2025-2026-yillar kuzgi-qishki mavsumda 95 kilometrdan ortiq xo'jaliklararo irrigatsiya tarmog'i, 1530 kilometrdan ortiq

xo'jalik ichki sug'orish tarmog'i, 410 kilometrdan ortiq irrigatsiya-melioratsiya tarmog'ini tozalash ishlari olib borilmog'ida. Qariyb 1800 kilometrga yaqin irrigatsiya tarmog'idagi inshootlar ta'mirlanmog'ida. Mavsum davomida klaster va fermer xo'jaliklari tasarrufidagi 2400 kilometr ichki sug'orish tarmoqlarida betonlashtirish ishlari olib borilmog'ida.

SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR QAMROVI KENGAYMOQDA

Viloyatda suv resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish nafaqat suv sarfini qisqartirish, balki yer unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmog'ida. 2025-yilda viloyat bo'yicha 19,1 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish hamda 9 ming gektar yerni lazer uskunasi yordamida tekislash rejalashtirilgan edi. Yilning 10 oyi yakuniga ko'ra, bu ko'rsatkichlar rejadan ancha yuqorilab, 36,3 ming gektardan ortiq maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy etildi.

Bunda 8,4 ming gektarda tomchilatib, 1,6 ming gektarda yomg'irlatib, 1,4 ming gektarda diskret usulida sug'orish, 3,7 ming gektarda boshqa turdagi zamonaviy texnologiyalar qo'llanildi. Shuningdek, 21,2 ming gektar yer lazer uskunasi yordamida tekislandi. Mazkur ishlar natijasida o'tgan 10 oyda 150,8 million kub metr suv iqtisod qilindi.

2026-yilda 42,6 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan. Jumladan, 6,8 ming gektarda

tomchilatib, 8 ming gektarda yomg'irlatib, 2,5 ming gektarda diskret usulida, 6 ming gektarda egiluvchan quvurlar yordamida, 1,2 ming gektarda plynka to'shab sug'orish texnologiyasi yo'lga qo'yiladi. 18,07 ming gektar yer maydoni lazer uskunasi yordamida tekislanadi. 2027-2030-yillarda esa 136,3 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.

MUHIMI - SAMARA VA IQTISOD

Tahlillarga ko'ra, suv tejoyvchi texnologiyalar suv sarfini 20-60 foizgacha kamaytiradi. Shu bilan birga yonilg'i moy va mineral o'g'itlar sarfini 25-35 foizgacha tejash, hosildorlikni esa 15–40 foizgacha oshirish imkonini bermog'ida. Masalan, tomchilatib sug'orish tizimini joriy etgan ko'plab fermer xo'jaliklari hosildorlik oshgani, eng muhimi, suv ta'minoti barqarorlashganini qayd etmog'ida.

Suv tejoyvchi tizimlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali tuproqning eroziyaga uchrash ehtimoli kamayadi, suvning isrof bo'lishi oldi olinadi, yer osti suvlari darajasi barqaror holda saqlanadi. Bu esa mintaqada suv balansini barqarorligini ta'minlash, qishloq xo'jaligining izchil rivojiga zamin yaratadi.

Farhod RAJABOV, Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun muhim jarayon



Bugungi globallashtirish davrida mamlakatning har bir islohotini ilmiy asosda, aniq raqam va ishonchli ma'lumotlar bilan rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, 2026-yilda o'tkaziladigan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri O'zbekiston

taraqqiyotining navbatdagi muhim bosqichidir. Ushbu jarayon orqali yurtimizdagi har bir fuqaroning ijtimoiy ahvoli, yashash sharoiti, bandlik holati, ta'lim darajasi, oilaviy tarkibi, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer maydonlari, chorvachilik,

bog'dorchilik, parrandachilik va dehqonchilik faoliyatining real manzarasi aniqlanadi. Natijada davlat organlari aholining ehtiyojidan kelib chiqib, yangi ijtimoiy infratuzilma loyihalarini shakllantiradi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilaydi. Aholini ro'yxatga olish faqat raqamlarni yig'ish emas, balki davlatning ijtimoiy siyosatini to'g'ri rejalashtirish uchun zarur asosdir. Maktab, bolalar bog'chasi, poliklinika yoki yangi yo'l qayerda qurilishi kerakligi, qanday xizmatlarga ehtiyoj ko'proq ekanini aynan mana shu ma'lumotlar asosida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish esa agrar sohada resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Har bir fermer xo'jaligi, tomorqa yoki dala maydonining to'liq qayd etilishi natijasida yurtimizda ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlash, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish,

mahsulot eksportini ko'paytirish bo'yicha puxta reja tuzish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur tadbirni yuqori darajada tashkil etish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2025-yil 19-sentabrda "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmon imzolandi.

Farmon bilan ro'yxatga olish jarayoni ochiqlik, aniqlik, xolislik va shaffoflik tamoyillariga asoslanishi belgilandi. Shuningdek, bu borada zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo'llaniladi. Natijada har bir fuqaroning ma'lumotlari xavfsiz tarzda qayd etiladi, shaxsiy sir saqlanishi to'liq kafolatlanadi. Bu hujjat ro'yxatga olishning qonuniy asoslarini yaratish bilan birga, xalqaro standartlarga mos ravishda ma'lumot yig'ish tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ro'yxatga olish jarayoni davlat va xalq hamkorligining yorqin ifodasidir. Chunki bu jarayon faqat statistika idoralari ishi emas, balki butun jamiyat manfaatini ifodalaydi. Har bir fuqaro o'zining haqiqiy ma'lumotlarini to'liq va xolis taqdim etishi orqali mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Chunki to'g'ri berilgan ma'lumot davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini adolatli yo'naltirishga yordam beradi. "Yangi O'zbekiston - xalq davlatidir" degan g'oyaning mazmun-mohiyati ham aynan shunda. Xalq ishtirokisiz, xalq fikrisiz islohot bo'lmaydi. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish yur-timizning bugungi imkoniyatlarini to'g'ri baholash, kelajak strategiyasini aniq belgilash imkonini beradigan muhim tarixiy jarayondir.

Shunday ekan, har birimiz ushbu tadbirda faol ishtirok etib, aniq ma'lumot taqdim etish orqali o'zimizning va avlodlarimizning farovon kelajagi uchun hissa qo'shaylik. Chunki bu ro'yxatga olish faqat statistika emas, balki xalqimizning hayoti, orzusi va ertangi kuni haqida haqqoniy tasvir bo'ladi.

Mohinur BO'RIYEVA,
viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati bosh mutaxassisi.

1-dekabr - Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni



Qo'rqish emas, himoyalani zarur

Yer yuzida istiqomat qilayotgan 10 millionga yaqin bemorni o'z iskanjasiga olgan, ularga har kuni o'lim, og'riq, uqubatlarni eslatib turgan OITS bir kunlik kurash bilan tugab qolmaydi. Buni yaxshi tushungan tibbiyot va farmasevtika sohasi vakillari necha yillardirki, tinimsiz izlanishda, kasallikka qarshi ishonchli davo topmagan bo'lsalar-da, bemor ahvolini yengillatish, uning umrini uzaytirish bo'yicha birmuncha yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Bunga davolanishni erta bosqichlarda boshlash, uzoq muddatli terapiya va OITSga chalinganlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat evaziga erishilmoqda. 2010-yillardan antiretrovirus terapiya samarasi ko'zga tashlana boshladi: kuchsizlangan immun tizimiga ega bemorlarda ham hayot darajasi oshgani va boshqa insonlarga virus yuqtirish ehtimoli pasaygani kuzatildi.

OIV virusi organizmga tushgan dastlabki davrda hech qanday nuqson alomatlar sezilmaydi, immun tizimi viruslarning tajovuzini bostirib turadi. Odam virusni yuqtirib olganidan boshlab 10 yilgacha kasal ekanini sezmasligi mumkin. Bu davrda organizmda OIV viruslari bilan kasallangan hujayralar soni sog'lom hujayralarga qaraganda oshib boradi, natijada OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) kelib chiqadi. Bu surunkali tarzda kechuvchi tizimli xastalik. U faqat bitta organni zararlaydi, deb tushunish xato. Organizmning viruslar bilan mahv etilishi natijasida immun tizimi o'z vazifasini bajara olmaydi, natijada inson har qanday tashqi tasirga sezuvchan bo'ladi, oddiy kasalliklarni ham og'ir kechiradi. Organizmning kurashuvchanligi yo'qolgani bois yondosh kasalliklar rivojlanib boraveradi.

OITSga qarshi kurashga yo'naltirilgan davlat dasturlari asosida tibbiyot muassasalarini moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, bu esa OIV infeksiyasining parenteral yo'l bilan (in'eksion muolajalar orqali) yuqishi ko'rsatkichini kamaytirdi. Infeksiya onadan bolaga yuqishning oldini olish bo'yicha ham profilaktik ishlar yo'lga qo'yilgan. Yani, har bir ayol homiladorlikning ilk haftalaridan va 20-30 haftaligidan keyin 2 marotaba yashash joyidagi tibbiyot muassasasi tomonidan nazoratga olinib, OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi. OIV infeksiyasi aniqlangan homilador ayolga belgilangan muddatdan tug'ruq amalga oshirilguncha virusga qarshi maxsus profilaktika dori vositalari beriladi. Tug'ilgan bolaga ham bir oy davomida virusga qarshi profilaktik dori preparatlari ajratiladi hamda ona suti bilan oziqlantiriladi. Buning natijasida kasallik onadan bolaga yuqishi ko'rsatkichlari keskin

kamayishiga erishildi.

Bugungi kunda retrovirusga qarshi davolash preparatlari orqali OIV infeksiyasini yuqtirib olgan odamning umrini sog'lom odamning umrinalik cho'zish mumkin. Bu muolaja virusni to'liq yo'q qilmasa ham, uning bemor qonida ko'payib borishiga yo'l qo'ymaydi, yani qonda viruslar kamayib, immunitet oshadi, virusga qarshi kurashuvchi hujayralar ortadi va bemorning ahvoli yaxshilanib boradi. Shu yilning uchinchi choragi yakuniga ko'ra, viloyatimizda OIV infeksiyali bemorlarning 89 foizi davolashning dunyoda tan olingan usuli - antiretrovirus muolajalar bilan qamrab olindi.

OIV/OITSga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda raqamli texnologiyalarni joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish, malumotlarni boshqarishni takomillashtirish, bemorlarning holatini doimiy monitoring qilib borish imkonini beradi. 2023-yildan boshlab viloyat OITSga qarshi kurashish markazida takomillashtirilgan OIV infeksiyali shaxslar bo'yicha yagona elektron tizim ishga tushirildi va u ljtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va Tashqi migratsiya agentliklarining elektron bazasi bilan integratsiya qilindi. Bu tizimning quvaliyli shundaki, tizim to'liq shaffof tizimda ishlaydi va ma'lumotlar haqqoniyliyi kafolatlanadi. Yashash hududi o'zgarigan holatlarda ham muammolar elektron tizimda hal qilinadi. Bemor bilan suhbatlashish uchun vaqt ko'proq bo'ladi va retrospektiv epidemiologik kuzatishlarni olib borishda ma'lumotlar elektron shaklda olinadi.

Har bir inson o'zida shubhali holatlarni sezgan taqdirda ixtiyoriy ravishda tekshiruvdan o'tishi mumkin. Buning uchun har



bir viloyatdagi OITSga qarshi kurashish markazlari va tumanlararo OITSga tashxis qo'yish laboratoriyalariga murojaat qilish lozim. "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga asosan tekshiruvlar shaxsning xohishiga ko'ra maxfiylikka rioya etilgan holda amalga oshiriladi. OIVga tekshirish natijalari qanday bo'lishidan qati nazar vrach buni bir saqlashi kafolatlanadi. Shu bois tekshiruvlardan o'tishdan qo'rqmaslik kerak.

OITSga qarshi kurashish markazining laboratoriya majmuasi va 5 tumanlararo OIV tashxis laboratoriyalarining asosiy vazifasi OIV infeksiyasini erta aniqlash, dispanser nazoratida turgan bemorlarning laborator tahlillarini o'tkazish, davolash samaradorligini baholashdir. 2025-yil 10 oy davomida Samarqand viloyati bo'yicha 490115 ta skrining tekshiruvlari o'tkazildi, shundan 34295 tasida bolalar tekshirildi.

Aholi o'rtasida OIV infeksiyasini erta aniqlash, tashxislash va davolash sifatini oshirish maqsadida zamonaviy uskunalar, yetarli darajada test sistemalari va maishiy jihozlar xarid qilindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2030-yilga borib OIV epidemiyasiga barham berish uchun "95-95-95" strategiyasi olg'a surilgan. Bu tamoyilga ko'ra, OIV yuqtirgan bemorlarning 95 foizi o'z statusini bilishi, 95 foizi maxsus terapiya bilan qamrab olinishi, 95 foizida virus yuklamasining past darajaga tushishiga 2025-yilgacha erishish va 2030-yilda OITS kasalligi yuqishiga barham berish maqsad qilingan.

Xalqaro ekspertlarning xulosasi qilishicha, 2030-yilgacha OIVning aholi salomatligiga tahdid sifatidagi global xavfni kamaytirishga doir ustuvor maqsadlarga erishish mumkin. Buning uchun hukumatlar xastalikning oldini olish, unga qarshi kurashish, infeksiyani erta bosqichda aniqlash va samarali davolash uchun zarur resurslar ajratishi kerak.

Ulug'bek NAZAROV,
viloyat OITSga qarshi kurashish markazi bosh vrachi.

Paxtachi tumani Fay mahallasida drayver sohalarni rivojlantirish maqsadida "Zarbdor tajribasi" asosida yil yakuniga qadar 300 gektar yerda yangi intensiv bog' barpo etilmoqda. Natijada ball boniteti past bo'lgan yerlar o'rni-da intensiv tok va mevali daraxt ko'chatlari ekilib, 150 ta doimiy va 150 ta mavsumiy ish o'rni yaratiladi va budjetga qo'shimcha 0,6 milliard so'mlik tushum ta'minlanadi. Buning uchun Narpat kanaliga nasos o'rnatilib, transformator, 500 metr elektr tarmog'i, 3,5 kilometr suv tarmog'i (quvur) tortildi. Bu ishlar uchun 3 milliard 260 million so'm mablag' ajratilib, "SAMARQAND SUVLOYIHA" MChJ tomonidan ishlar yakunlandi.

Bugungi kungacha tadbirkor dehqonlar tomonidan 15 gektar maydonda 4,5 mingdan ortiq manzarali va mevali daraxtlar o'tqazildi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 23-noyabrda "Respublikada yashilik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Paxtachi tumanidagi sport maktabining Mojar mahallasida joylashgan sport majmuasida 1000 tup terak, 100 tup mevali daraxt ko'chatlari ekildi.

Kattaqo'rg'on tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi ko'chat ekish ishlari davom etmoqda. Joriy mavsumda tumanda 808 ming tup daraxt ko'chatlari ekilishi belgilangan. Umumxalq hasharida tumandagi korxonalar-tashkilotlar, mahallalar, ko'chalar hamda aholi xonadonlarida 170 mingdan ziyod ko'chat ekildi. Ayniqsa, Kattaqo'rg'on

"Yashil makon": Dashtda 300 gektar bog' yaratiladi



tuman yo'llardan foydalanish korxonasi tomonidan Kattaqo'rg'on shahri Ingichka qo'rg'oni yo'li bo'yicha 3000 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, hududlarning ko'kalamzorlashuviga munosib hissa qo'shildi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan **Toyoq tumani** Ilmobod mahallasida "Prokuror bog'i" tashkil etildi.

Mazkur hududda joylashgan Darg'om ko'chatchilikka ixtisoslashgan davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasi qarashli jarlik hududi tekislanib, ochiq yer maydoni holatiga keltirildi hamda 2-gektar maydonda 1000 tup Qrim qarag'ayi ko'chati ekildi.

Past Darg'om tumanidagi sport maktablari xodimlari Olmazor mahallasida joylashgan TIP-2 sport majmuasi atrofida keng ko'lami obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. 70 sotiq maydonga qariyb 2000 tup manzarali hamda mevali daraxt ko'chatlari ekildi.

Oqdaryo tumani Mustaqillik mahallasida Mehnat ko'chadagi ko'p qavatli uylar yonida "Mening bog'im" loyihasi bo'yicha ajratilgan yer maydonida ham manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati.

Avliyo emas, astronom edi

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi taraqqiyparvar arboblari orasida o'zining ijobiy g'oyalari bilan shuhrat qozongan, asl ismi Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Hanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy bo'lgan, ammo "Ahmad Kalla", "Muhandis", "Ahmad Maxdum" nomlari bilan o'z zamonasining eng ilg'or fikrlovchi ma'rifatparvariga aylangan Ahmad Donish 1827-yilda Buxoro shahrining Ko'chai Sangin guzaridagi o'rtahol mudarris oilasida tug'ilgan. "Donish" uning adabiy taxallusi bo'lib, tashqi ko'rinishida bosh qismi kattaligi uchun zamondoshlari uni "Ahmad Kalla" deb ham atashgan. Tabiiy va aniq fanlarni yaxshi o'zlashtirganligi hamda bir necha ixtirolari tufayli Ahmad Donish ilm ahli orasida "Muhandis" taxallusiga ham sazovor bo'lgan.

Ahmad Donish falakiyot ilmidan ham qator asarlar yaratgan bo'lib, jumladan, "Munozir al-Kavokib" ("Yulduzlarni kuzatish") asarida falakiyot ilmi o'z muhim masalalarini yoritdi. U o'z asarlarida tabiat hodisalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. "Bizning qilgan tadqiqotlarimiz yunon hukamolarning mazhabiga muvofiqdir. Butun hukamolarning aytishlaricha, yerning shakli kuraviy, ya'ni yumaloqdir. Falaklar unsurlari dol o'rtasida hech narsaga suyanmay muallaq turadilar". Bu yerda alloma Yerning aylana shaklda ekanligi, sayyoralarining tinimsiz harakati, Oy va Quyosh tutilishi, yer qimirlashining ilmiy tahlillari borasida fikr yuritib, ushbu hodisalarning barchasi tabiiy jarayon ekanligi va ularni oldindan aytib berish imkonligini ta'kidlagan.

Allomaniy fikricha, Yer qimirlashi yerning o'rtasida joylashgan issiq par massasi harakatga kelishi natijasida sodir bo'ladi. Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" asarida ma'danlar, buloq suvlari, tog'larning paydo bo'lishi, Yerning tarkibi xususida o'z fikrlarini bayon etar ekan, "Yerning ichi uch qatlamdan tarkib topganligini, birinchi qatlam quruq tuproq, ikkinchisi yopishqoq loy, uchinchisi qatlam esa sahr tosh qatlamlaridan iborat ekanligini, ammo yer markazining o'zi esa qizg'in, sassiq bug' bilan to'ldirilgan va u ichi bo'sh tarvuzga o'shshashligini" e'tirof etadi.

Ahmad Donishning fikricha, yer va sayyoralar murakkab jismlar sirasiga qirib, oy-kun tutilishi ilohiy bir ish, g'ayritabiiy hodisa emas, balki tabiiy jarayondir. Sadriddin Ayniy o'z "Esdalıklar"ida Ahmad Donishning kun tutilish hodisasini oldindan ilmiy jihatdan aniq vaqti va soatiga cha ayta olganligini ajablanish ila bayon etgan. "Buncha daqiqadan keyin oy yashirinadi, buncha daqiqadan keyin oy beti ochiladi. Aytgan daqiqada oy yuzi ochila boshladi. Aytgan daqiqadan keyin oy qorong'uligidan hech bir asar qolmadi". Savodsiz olomon Donishni avliyo deb ataganlarida Sadriddin Ayniy Ahmad Donishni avliyo emas, astronom ekanligini aytadi.

Ahmad Donish o'rta asrlarga xos qarashlarni qat'iy inkor etib, zilzilalarning tabiiy sabablarini o'rganish ustida ham samarali tadqiqotlar o'tkazgan. Jumladan: "Zilzilalar sababsiz bo'lmaydi. Zilzila sababi yer markazida quyi issiq massa - bug' harakatidir", deb tushuntiradi.

Buxoro ilm-fani uchun o'z davrining yorqin yulduzi Ahmad Donish nafaqat ma'rifatparvar, balki tabiiy fanlar va astronomiya bo'yicha chuqur bilimga ega olim sifatida tanilgan.

Shuhrat BOZOROV,
SamDChTI gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Davronov Tuychi Babakulovichga (2021-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Xasanov Arkadiy Sultanovichga (2025-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot

bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xudayberdiyev Baxodirga (2023-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xleborodova Roza Viktorovna (2025-yil 29-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Sharofiddinov Qiyomxonga (2024-yil 23-noyabrda vafot

etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Egamkulov Faxritdin Davronovichga (2021-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kodirova Buvnarga (2019-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher

Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Djabbarov Xasan Sarkayevichga (2015-yil 19-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "LA ROUTE DE SAMARKANDE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306855996) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti vrachlar malakasini oshirish fakultetidan Voxidov Ixom

Amirkulovichga 2017-yilda "Salomatlik-3" loyihasi asosida "Umumiy amaliyot vrachi" dasturi bo'yicha berilgan sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Sotuvchi "MAROKAND MALL CENTER" MCHJ shaklidagi qo'shma korxonasi nomidan jamiyat direktori A.A.Fazliev va sotib oluvchi Saidboyev Sanjar Asrayevich o'rtasida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri, "Qarliqxon" MFY, Nasaf ko'chasi, 343-uy joylashgan "Gipermarket binosining 0001 liter, 1-qavatidagi 34-savdo do'koni" uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2024-yil 8-mayda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 089-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomada asosida 2024-yil 8-mayda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Oqdaryo tumanidagi "SAM PANDORA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309122704) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

BEHBUDIY NEGA HAJGA OTLANDI?

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari qahramoni Anvar mirzolik vazifasida ishlardi. Fitrat, Ayniy, Qodiriy, Cho'lpon singari yoshlarning ustozlari Mahmudxo'ja Behbudiy ham ish faoliyatini mirzolikdan boshlagan. O'qib-o'rganishga bo'lgan iqtidor tufayli o'z davrining yuksak e'tiborli lavozimi - muftilik rutbasiga erishdi. Mufti musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniylar hisoblanib, diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin qilish borasida hal qiluvchi huquqqa ega.



Albatta, bunday lavozim sohibi o'z faoliyati davomida xalqning barcha qatlamlari vakillari bilan muvofiqda bo'ladi. Demak, u jamiyatning kichik masalalaridan yirik muammolarigacha duch keladi, ularni qiyoslash, xulosa chiqarish va yechim nimada ekanligi to'g'risida fikrlash imkoniga ega edi.

Mahmudxo'ja mirzolik paytidan boshlab, chor Rossiyasining mahalliy xalq uchun yo'riqnomasi - "Turkiston viloyatining gazetasi"ni o'qib borar, oqqoqsho va uning siyosatini kuzatardi. Lekin dunyoqarashining kengayishida chor Rossiyasi hududida jadidchilik harakatiga asos solgan mashhur ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprali muharrirligida chop etilgan "Tarjimon" gazetasining o'rni alohida ekanligini Behbudiy ham, uni bilgan insonlar ham ta'kidlashgan.

Xalqimizda dunyoni anglash uchun ko'p o'qish yoki dunyo kechish kerakligi haqida naql bor. Behbudiy nafaqat o'qidi, balki mamlakatlarni kezdirdi: "1318-sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kafkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi", deydi Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyina" jurnalining 1914-yil 31-sonida chop etilgan "Qasdi safar" maqolasida.

Behbudiy hayoti va ijodini o'rgangan tadqiqotchil olimlar ana shu davrni yuzakiroq yoritadi, nazariyada. Holbuki, Hoji Muinning bolsheviklar zamonasidagi yozishmalarida biroq bo'lsa-da, ehtiyotkorlik mavjudligini ta'kidlagan. Uning fikricha, Behbudiy 3-4 yoshda bo'lgan birinchi (to'ng'ich) o'g'li nobud

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga



bo'lgani uchun qayg'uga botib, birinchidan, qayg'usini unutish, ikkinchidan, haj amalini ado etish maqsadi bilan 1899-yilda buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan safarga chiqqanini ta'kidlab, "Bu muborak safar Behbudiyg'a anchagina ibrat va intiboh (ogohlik, g'afllatdan uyg'onish - H.S.) berdi", deya xulosa chiqaradi.

Aslida uning safariga boshqa sabablar ham mavjud edi. Avvalo, 1898-yilgi Dukchi eshon nomini olgan Andijon qo'zg'olonining oqibati Mahmudxo'janing chuqur qayg'uga botiradi. Behbudiy jarayonni har tomonlama tahlil etadi, maxsus tayyorgarliksiz tish-tirnog'igacha qurollangan zulmkor qo'ldan o'ttiz yil davomida ham ma'nan, ham moddiy jihatdan och-nahor qulga aylantirilgan olomon dunyoqarashi bilan ozodlikka chiqish mutlaqo mumkin emasligini anglab yetadi. Negaki, Behbudiy maqolasida yozganidek, "...Turkiston, bilkossa, Samarqand butun dunyodan xabarsiz, qorong'u bir zindon kabi edi. Xalq nodon, ulamo mutaassib, hukumat nihoyat darajada g'adbir (aldamchi, berahm - H.S.) va zolim, maishati buzug, axloqi fasod... edi".

Yevropa iskanjasida qolgan Sharqning boshqa davlatlari ahvolidan xabaridor bo'lish, ularning ozodlik yo'lidagi harakatlarini o'rganish va tabiiyki, haj fursatida Allohdan o'z xalqiga hurriyat so'rash safarining asosiy sababi edi.

Biz Mahmudxo'ja Behbudiyning halok bo'lgani e'lon qilingan paytdagi ilk maqolalaridan ham fikrimizga asos topdik. Muborak haj safari ahamiyati haqida uning boshqa shogirdi Sadrididdin Ayniy shunday yozadi: "1318nchi sanai hijriyada Hijozg'a safar qilib, Istanbul va Arabistonni ziyorat va haji islomni ado qilg'on. Hijoz safari Mahmudxo'jag'a ko'b bilimayturgon narsalarini o'rgatgan, ko'b ibratlar olg'on. Borish-kelishda har sinf kishilar bilan ko'rushgan va fikr olishgan. Mahmudxo'ja Hijoz safaridan so'ng'ra go'yo dunyog'a yangi kelgandek bo'lub, Turkistonning ilmiy va ijtimoiy ishlarig'a boshqa ko'z, boshqa bir o'Ichak bilan qarag'on" (Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1920-yil 8-aprel).

"Hijoz safaridan so'ng'ra go'yo dunyog'a yangi kelgandek" o'xshatishi har bir hojiga munosib ko'rinishi mumkin. Biroq "Turkistonning ilmiy va ijtimoiy ishlarig'a boshqa ko'z, boshqa bir o'Ichak bilan qarag'on"ni barchaga birdek bo'lgan bo'lmasligi kundek ayon. Qolaversa, dunyoqarashining kengayishi va fikrining o'zgarishiga u ko'rgan mamlakatlar

ahvoli, safar davomidagi voqea-hodisalar, qo'lga kiritgan ma'lumotlar, gurunqlar, taassurotlar ham katta rol o'ynagan.

Behbudiy safardan qaytgach, Sadrididdin Ayniyning ta'kidlashicha, Turkistondagi qorong'i muhit sabab nima qilishni bilmay "necha vaqt ikkilanib yurgan".

Sirdan boshqalarga ikkilanish bo'lib ko'ringan fursat, Hoji Muin fikricha, Behbudiy tomonidan kelgusidagi harakatlar uchun tayyorgarlikka sarflangan. Qisqartirilgan iqtiboslarga e'tibor qaratamiz: "Borish-kelishda yo'lda Istanbul, Misr kabi shaharlarga kirib, undagi ba'zi eski-yangi maktablarni, ayniqsa, Misrdag'i "Jome' al-Azhar"ni ziyorat etdi. Qaytishda Misr va Istanbuldan turlik gazeta va yangi kitoblarni olib keldi... Ilmiy, fanniylar kitoblarning mutolasi bilan ma'lumotini kengaytira berdi... Behbudiy afandi haj safaridan kelgandan so'ng Ho'qandboy Abduxoliq o'g'li degan samarqandlik bir ziyoli bilan tanishib, uning ilm va fikridan istifoda etadi. Fanniylar va falsafiy masalalarda u bilan muokolama qilishib, ma'lumotini ko'paytirdi. Boshqa yuqardan, o'shal vaqtdag'i gazeta o'qug'uvcilardan soatchi Badrididdin bilan tanishib, buning bilan har kuni deyarlik ko'rushdi va fikr olishdi" (Hoji Muin. Mahmudxo'ja Behbudiy// "Uchqun" jurnali, 1923-yil, 1-son).

Ba'zi tadqiqotchilar e'tibor bermagan bu fursatda Behbudiy ozodlik uchun kurash yo'llarini qidirdi. Dunyo tarixini, o'z o'tmishini, uning eng yorqin sahifalarini varaqladi. Bobolarimizning dunyo ilmi, madaniyatiga qo'shgan hissasidan, ular qurib ketgan madrasayu minoralardan hayratlandi. O'z davrining ham diniy, ham dunyoviy ilmlarini puxta o'rgandi. Jahonda bo'layotgan voqea-hodisalar, jumladan, urushlar va ularning sababi, mohiyatini millat manfaatini nuqtai nazaridan tafakkur chig'irig'idan o'tkazdi. Shu bilan birga, tariximizning tanazzul bosqichlari, sabablarini taftish qildi. Bu masalalar borasida Hoji Baqo, Ho'qandboy Abduxoliq o'g'li, soatchi Badrididdin singari dunyoqarashi keng insonlar bilan munozara o'tkazdi. Ana shu bahslar, fikr almashuvlar natijasida xulosalar chiqarib, kelgusi rejalarni ishlab chiqdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodga turli maqsaddagi sayohatlari, Farg'ona vodiysida bo'lib, ziyoli insonlar bilan fikr almashishi ham uning rejalari puxta bo'lishiga katta zamin yaratdi.

Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori, professor.

Француз тилининг етук билимдони

Хаётда эзгу фазилатлари, фидойилиги ва меҳнатсеварлиги билан илмий мактаб яратган инсонларни кўрамиз, улар ҳақида ўқиб, ўрганмиз. Улар эришган натижалар, меҳнат фаолияти билан танишиб, ибрат оламиз. Бугун 70 ёшни қарши олаётган олим, филологiya fanlari doktori, professor Абдуғафур Маматовнинг илмга йўғрилган ҳаёт йўли кўпчиликка ибрат.

А.Маматов 1955 йилда Булунгур туманининг Қоровултепа қишлоғида туғилди. Тумандаги 30-умумий ўрта таълим мактабида ўқиган даврларда хорижий тилларга, айниқса, француз тилини ўрганишга қизиқди. Кутубхонадан ўзбек, рус ва француз тилидаги китобларни олиб ўқир, француз шерьиятига меҳр кўйганди. Шу тилга бўлган муҳаббат уни Самарқанд давлат университетининг тайёрлов курсига етаклади. Чет тилини пухта ўзлаштирган абитуриент 1974 йилда талабалик баҳтига муяссар бўлди. Университетнинг хорижий тиллар факультети француз тили бўлимида ўқиган пайтларидаёқ доимо устозлари эътиборига тушди. Дипломни олгач, Жиззах давлат педагогика институтининг хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси сифатида илк меҳнат фаолиятини бошлади. Уч йил давомида А.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институтида аспирантура иштирокида.

1993-1996 йилларда Тилшунослик институти докторантурасида таҳсил олди. Бугун ғайрат ва шижоатини илм олишга бағишлаган ёш олим 1988 йилда фан номзоди бўлди. 2000 йилда эса "Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари" мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилди. Устоз нафақат илмда, балки раҳбарликда ҳам ўз салоҳиятини намойён қила олди. 1990-1992 йилларда Жиззах давлат педагогика институти педагогика ва бошланғич таълим методикасини таълим факультети декани ўринбасари, 2001-2004 йилларда институтнинг биринчи проректори лавозимларида меҳнат қилди. Бу даврда олийгоҳдаги маънавий-маърифий ишларга, талабаларнинг таҳсил олиши, дарслардан сўнг маданий дам олишларини ташкил этишга бош-қош бўлди. Бугун Жиззах давлат педагогика университетининг



хорижий тиллар факультети декани вазифасини бажариб келаётган профессор илмий-педагогик фаолияти давомида 88 та илмий ва ўқув-услубий ишланмалар, 43 та илмий-оммабол ва публицистик мақолалар chop эттирди, талабалар учун дарслик ва қўлланмалар яратди. Устознинг меҳнати ҳукуматимиз томонидан муносиб эътироф этилиб, 2006 йилда факультети декани ўринбасари, 2001-2004 йилларда институтнинг биринчи проректори лавозимларида меҳнат қилди. Бу даврда олийгоҳдаги маънавий-маърифий ишларга, талабаларнинг таҳсил олиши, дарслардан сўнг маданий дам олишларини ташкил этишга бош-қош бўлди. Бугун Жиззах давлат педагогика университетининг

Таълим фидойиси, профессор Абдуғафур Маматовни кутлуг' ёши билан табриқлаб, илмий-педагогик фаолиятида омад тилаймиз!

Светлана УМИРОВА,
Бахтиёр ХОЛИМУХАММЕДОВ,
Уйғунжон ТУРДИМУРОДОВ,
Ш.Рашидов номидаги СамДУ доцентлари.

Samolyot uchishiga hali ancha vaqt bor edi. Nazirjon kutish zalida o'rindiqda safar xaltasiga yonboshlab mudrayotgan yigitning yoniga borib o'tirdi.

- Kechirasiz! - yigit ko'zini ochib, safar xaltasini tizzasiga olib, surildi.
- Vatanga birga uchar ekanmizda? - Nazirjon unga kulib razm soldi: "Aftidan ancha qiynalgan odamga o'xshaydi".
- Nasib bo'lsa, to'rt soatdan keyin Samarqandda bo'lamiz, - yigit istamaygina javob berdi.
- Tanishaylik, ismim Nazirjon! - u qo'lini yigitga uzatdi. - Gurunglashib ketamiz. - Xomush yigitning sal chiroyi ochildi.
- Men Fozilim, - yigit ham Nazirjonning qo'lini oldi.
- Ana endi, gapiring, - dedi Nazirjon kulib. - Qay yumush bilan, qachon kelgandigiz, safar qanday kechdi?
- Ey, buning tarixi uzun, - dedi Fozil istamaygina.

- O'zingiz-chi?
- Xalqaro konferensiyaga taklif qilishgandi. Qatnashib ketyabman. O'zbekiston haqidagi ma'ruzamni qizg'in qabul qilishdi. Xursand bo'lib qaytarpman, - dedi Nazirjon.
- Kechirasiz, yoshingiz nechada?
- O'ttizda! - dedi Nazirjon. - Nega so'rayapsiz?
- Shunchaki qiziqdim-da, tengdosh ekanmiz, olimmisiz?
- Shunday desak ham bo'ladi, yaqinda doktorlik dissertatsiyamni yoqladim, universitetda professorman, - dedi Nazirjon o'ng'aysizlanib. - U maqtanishni yomon ko'rardi.
«Sen-chi? Sen kimsan?». Fozil o'kinch bilan o'tmishini ko'z oldiga keltirdi. Universitetda oldi talabalardan edi, uchinchi kursga o'tganida Salimga qo'shildi-yu yo'lbalardan ozdi. Salim kursdoshi boyvachchani o'g'li edi. Hashamatli uyda ijarada turardi. O'qishga qimmatbaho mashinada kelar, puldorligi bilan yigit-qizlarning ko'zini kuydirardi.

DEKABR OYIDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

1-DEKABR
Xolmaxmat ISMATULLAYEV – 1951-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi, «Do'stlik» ordeni sohibi. Kulol.

2-DEKABR
Sunnatulla AHMADJONOV – 1958-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan. O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi.

4-DEKABR
Nurmuhammad MUXARLYAMOV – (1930-1989) Samarqand shahrida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, akademik.

5-DEKABR
Shokir G'AFFOROV – 1958-yilda Xatirchi tumanida tug'ilgan. Tarix fanlari doktori, professor.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 838 nusxada chop etildi. Buyurtma 556. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

